



2-bosqich 1-semestr

10-mavzu: Hol va uning ifodalanishi



TILAME

Ona tili

Abdukadirova M.M



Reja:

1. Hol haqida ma'lumot.
2. Holning ma'no turlari.
3. Mustaqil va nomustaqil hol.
4. Holning tuzilishiga ko'ra turlari.




YANGI MAVZU BAYONI: HOL



Esda saqlang. Gapning kesimidan anglashilgan harakatning belgisini bildiruvchi gap bo‘lagiga hol deyiladi.

Juda muhim. Hol doimo fe’l kesimga bog‘lanadi. Masalan, *Quyosh ko ‘kdan mo ‘ralab qarar* gapida qarar so‘ziga *mo ‘ralab* so‘zi bog‘lanib, undan anglashilgan harakatning tarzini, *ko ‘kdan* so‘zi *qarar* so‘ziga bog‘lanib, uning o‘rnini bildiradi.



Ba’zan hol ot kesimlarga ham bog‘lanishi mumkin. Bunday vaqtda hol ot kesimdan anglashilgan predmetning o‘rnini bildiradi. Masalan: **Andijonda o’t yoqsam, O’shda tutuni.**



HOL VA UNING TURLARI

(HOL KESIM BELGISI)



TILAME

O'RIN HOLI
(O'RIN RAVISHI,
OT)

Payt holi
(ot, payt ravishi va
ravishdosh)

Miqdor holi
(son, miqdor-daraja
ravishlari)

Vaziyat holi
(ot, sifat, ravish,
ravishdosh, taqlid)

-Qayerga? Qayerdan? Qayoqqa? Qayerda?
M: U Toshkentga uchdi.

-Qachon? Qachongacha? Qachondan beri?
Qay vaqt?
M: Bugun maktabga barvaqt keldik.

-Qancha? Qanchalab? Necha? Necha
marta?
M: Yuz marta eshitgandan, bir marta
ko'rgan afzal.

-Qanday? Qay holda? Qay tarzda?
M: U do'stlarcha hayrlashdi. Alisher
shoshmasdan bir-bir salomlashdi.

Sabab holi
(ot, sifatdosh)

-Nimaga? Ne sababdan? Nima uchun?
-lik,-sizlik,-gan+(lik)+(-dan)
qo'shimchasi orqali:
M: Shodligidan qul Tarlon, to'xtamadi
yig'idan.
2. -qani,-ganligi+sababli, tufayli,
uchun.
M: Litseyda o“qigani keldi

Maqsad holi

Nega? Nima maqsadda? Nima uchun?
Nima qilgani?
M: Tobi yo'qligi uchun kelmadи.
Qarorni tasdiqlash uchun qo'l
ko'tardi.



Holning ma’no turlari:



TILAME

1.	Ravish holi	Fe'l-kesimdan anglashilgan harakatning qay tarzda bajarilishini ifodalaydi	Qanday? Qanday qilib? Qay holda?	ravish, -ib, taqlid so‘zlar	Tez o‘qidi, yugurib keldi, g`ir-g`ir esdi
2.	o‘rin holi	Kesimdan anglashilgan harakat-holatning bajarilish o‘rnini bildiradi.	Qayerda? Qayerdan? Qayerga?	o‘rin oti +da +dan, o‘rin ravishi+ ga sari, tomon	Bozordan oldim. Dala tomon ketdi.
3.	Payt holi	Fe'l-kesimdan anglashilgan harakat-holatning bajarilish paytini bildiradi	Qachon? Qachongacha? Qachondan?	payt oti+da, +dan, payt ravishi+ gacha,guncha	Tongda, ayozda, hozirgacha, charchaguncha
4.	Sabab holi	Fe'l-kesimdan anglashilgan harakat-holatning bajarilish yoki bajarilmaslik sababini bildiradi	Nimag? Nima uchun? Nima sabab?	-ligi(sabab-li, uchun, tufayli), -ligidan, -ib	Yaxshi o‘qiganligidan oliygohga kirdi.
5.	Maqsad holi	Fe'l-kesimdan anglashilgan harakat-holatning bajarilish maqsadini bildiradi.	Nima maqsadda? Nima uchun?	-gani, -sin deb,(-i)sh maqsadida, uchun	o‘qigani ketdi. o‘qish maqsadida ketdi.



Vaziyat (ravish, tarz) holi

- ish-harakatning qanday tarzda bajarilganligini bildiradi: *qay holda?* *qanday?* *qanday qilib?* so‘roqlariga javob bo‘ladi. Quyidagicha ifodalanadi:
- holat ravishlari bilan: *astoydil gapirmoq, ketma-ket joylashmoq, tez yurmoq, sekin gapirmoq.*
- ravishdosh bilan: *shoshib chiqmoq, yura-yura charchamoq, tusmollab sanamoq.*
- sifat bilan: *samimi gaplashmoq, yaxshi o‘qimoq, go‘zal ko‘rinmoq.*

O‘rin holi



TILAME

- ▶ ish-harakatning bajarilish o‘rnini bildiradi:
- ▶ *qayerda? qayerga? qayerdan?* so‘roqlariga javob bo‘lib, quyidagicha ifodalanadi:
- ▶ ot bilan: *uyga bormoq, maktabdan chiqmoq.*
- ▶ o‘rin ravishlari bilan: *olisdan ko‘rinmoq, ichkarida o‘timoq.*
- ▶ o‘rin holi o‘zi ergashgan so‘zga boshqaruvi yo‘li bilan bog`lanadi.
- ▶ o‘rin holi makon, zamon kelishiklari (jo‘nalish, o‘rin-payt, chiqish) kelishigidagi so‘zlar, ko‘makchili otlar va o‘rin ravishlari bilan ifodalanadi.



Payt holi

- ish-harakatning bajarilish paytini bildiradi.
- qachon? qachongacha? qachondan beri? so‘roqlariga javob bo‘ladi.

Payt holi quidagicha ifodalanadi:

- payt ravishlari bilan: *yildan yilga kuchaymoq, kechadan beri kutdi, bir ozdan keyin keldi.*
- ravishdosh bilan: *qaytguncha kutdi, keta ketguncha so‘radi.*
- ot bilan: **Tongda** yo ‘lga chiqdi.
- payt ma’noli ko‘makchili so‘z birikmalari bilan: *Bundan besh yil ilgari uchrashgan edik. o‘sha kundan beri bu Voqeani unutolmayman.*

Daraja-miqdor holi



TILAME

- ▶ ish-harakatning miqdorini va darajasini bildiradi.
- ▶ *qancha? qay darajada? necha marta? necha?* kabi so‘roqlarga javob bo‘ladi.

Quyidagicha ifodalanadi:

- ▶ miqdor ravishlari bilan: *ko ‘p o ‘qiydi, sal qiyndi, juda qiyndi, kam o ‘qiydi.*
- ▶ son bilan: **Bir** gapirib o‘n kuladi. **Yuz marta** eshitgandan **bir marta** ko ‘rgan yaxshi.
- ▶ olmosh bilan: *shuncha kutdi, buncha kekkaydi, uncha gapirmang.*



Sabab holi

- ish-harakatning yuzaga kelish sababini bildiradi.
- nima uchun? nima sababdan? so‘roqlariga javob bo‘ladi. Quyidagicha ifodalanadi.
- -lik, -sizlik qo‘sishimchalarini olgan otlar bilan: **Tashnalikdan lablari qaqrab ketdi. Suvsizlikdan ekinlar qurib qoldi.**
- -gan+i qo‘sishimchali sifatdoshlar bilan: **Qo‘rqqanidan bir og`iz ham gapirolmadi.**
- *sababli, tufayli, uchun ko‘makchili qurilmalar bilan: Tinchlik tufayli yurt obod. Yaxshi o‘qigani uchun mukofotlandi.*

Maqsad holi



TIIAME

- ish-harakatning yuzaga kelish maqsadini bildiradi.
- *Nima uchun? nima maqsadda? nima qilgani?* so‘roqlariga javob bo‘ladi. Maqsad holi quyidagicha ifodalanadi:
- maqsad ravishdoshlari bilan: **ko‘rishgani qo‘l uzatdi, o‘qigani kelganmiz;**
- ot+ko‘makchi shaklida: **Tinchlik uchun kurashamiz.**
- harakat nomi+ko‘makchi shaklida: **Qoratoy uni surishtirish uchun yelib yugurdi.**
- maqsad ravishlari bilan: **Bizlar atayin sizni izlab keldik**



MUSTAQIL VA NOMUSTAQIL HOLLAR



TILAME

Ayrim paytlarda hol kesim vazifasida kelmagan fe'llarga ham bog'lanishi mumkin. Hol bog'lanib kelgan fe'lning kesim vazifasida kelishi yoki kelmasligiga ko'ra hollar xuddi to'ldiruvchilar kabi mustaqil va nomustaqil hollarga bo'linadi.

Esda saqlang. *To 'g'ridan-to 'g'ri kesim vazifasidagi fe'lga tobe bog'lanib kelgan hollarga mustaqil hollar deyiladi.*

Masalan, *Dalalarda boshlanadi ish.* (H.Olimjon) Bu gapda qayerda so'rog'iga javob bo'luvchi *dalalarda* o'rinni holi nima qiladi? nima bo'ladi? so'roqlariga javob bo'luvchi fe'l kesimiga tobe bog'lanib kelyapti. Shuning uchun bu hol **mustaqil** holdir.



Dalalarda boshlanadi ish.

To 'g'ridan to 'g'ri holga boryapti

Mustaqil
hol

Esda saqlang. Kesim vazifasida kelmagan fe'llarga tobe bog'langan hollar nomustaqlil hol hisoblanadi.

Masalan, *Daladan charchab kelgan yigit tezda uxbab qoldi*. Bu gapda qayerdan? so'rog'iga javob bo'lib hol vazifasida kelayotgan *daladan* bo'lagi kesimga emas, balki aniqlovchi vazifasidagi *charchab kelgan* bo'lagiga tobe bog'lanib kelyapti. Shuning uchun bu hol **nomustaqlil hol** hisoblanadi.





TIIAME

RAVISH

Kelishik
shaklidagi va
ko`makchili ot

FE`LNING
XOSLANGAN
SHAKLLARI

HOL

SIFAT

UNDOV
SO`Z

TAQLID
SO`Z

SON



TILAME

HOLLAR
TUZILISHIGA
KO`RA

SODDA
Ertalab
shudring
tushdi

MURAKKAB
Tursunali
bir-bir bosib
minbarga chiqdi



TILAME

SAVOLLAR.

- 1.Hol qanday gap bo‘lagi hisoblanadi?
- 2.Qaysi so‘z turkumlari bilan ifodalanadi?
- 3.Necha xil ma’no turi bor?
- 4.Mustaqil hol qanday hol hisoblanadi?
- 5.Nomustaqil hol qanday hol hisoblanadi?
- 6.Hollar tuzilishiga ko`ra necha xil?
- 7.Qanday hollar murakkab hollar hisoblanadi?



Mashqlar.



TIIAME

I.O‘qing. Hollarni topib, ularni o‘zi bog‘langan so‘z bilan birga birikma tarzida ko‘chiring, qaysi so‘z turkumlari bilan ifodalanganini va turini aytинг.

1. Xiyobonning chap tomonida kutubxona joylashgan. 2. Xiyobon oxirida ayvoni baland bahavo binoni butun hovlining ko‘rki desa bo‘ldi. 3. Ular qushdan ham yengil uchardilar. 4. Oraga jimlik cho‘kdi, hammaning qulog‘i ding bo‘ldi. Hech qayerdan hech qanday sado eshitilmas, faqat Chorsu maydoni tomonda sadaqa so‘rab yurgan bir gadoning o‘tkir ovozi elas-elas qulqoqqa chalinardi. 5. U sal noxushlik sezal boshladi.
6. Lakshman esa darrov tanidi, ularni Chorsu maydonida, bozorda, to‘y-tomoshalarda ko‘p ko‘rgan. 7. Shunday dedim-u apil-tapil ko‘zimni ochdim! 8. Men atay indamasdan chiqib ketayotgandim. 9. Axsidan chiqib ketganimning beshinchi yili Xo‘jandda turganimda yashirinchal bolalarimni ko‘rib kelishga qaror qildim.
10. Samarqand hokimi maktubni avaylab naycha holiga keltirdi-da, bir lahza Chorsu tomonga, uzoqlarga tikildi. 11. Abu Bakr Kalaviy pokdomon odam edi.

(Muhammad Ali)



TIIAME

II. Test ishlang:

1. Karima derazadan boshini chiqarib, ularga qarab qo'ydi. **Ushbu gapdagi ravish holini aniqlang.**

- A) ularga B) qarab C) derazadan D) boshini chiqarib

2. Uning kelayotganini sezmasdan eshikni yopdi. **Ushbu gapda holning qaysi turi mavjud va u qanday so'z bilan ifodalangan?**

- A) harakat nomi bilan sabab holi ifodalangan B) ravishdosh bilan sabab holi ifodalangan
C) sifatdosh bilan sabab holi ifodalangan D) ushbu gapda hol qo'llanmagan

3. Paxtani zavq bilan terdim. Paxtani mashina bilan terdim. **Gaplarda bilan ko'makchisi qanday gap bo'lagi tarkibida ishtirok etgan?**

- A) har ikkala gap tarkibida ham hol tarkibida
B) birinchi gapda hol, ikkinchi gapda to'ldiruvchi tarkibida
C) har ikkala gapda ham kesim tarkibida
D) birinchi gapda to'ldiruvchi, ikkinchi gapda hol tarkibida

4. 1. Suvni nimaga quymoqchisan? 2. Sen nimaga kechikding? **Ushbu gaplarda nimaga so'zi qanday gap bo'lagi vazifasida kelgan?**

- A) har ikkala gapda ham aniqlovchi B) har ikkala gapda ham to'ldiruvchi
C) har ikkala gapda ham hol D) 1-gapda to'ldiruvchi, 2-gapda hol

5. Vatan uchun to'kkali, yo'qmi bir qoshiq qoning? **Ushbu gapdagi ravishdoshning sintaktik vazifasini toping.**

- A) maqsad holi B) payt holi C) qo'shma gapning kesimi D) sabab holi



TILAME

6. Eshikning qo‘qqisdan ochilishi xotinlarni cho‘chitib yubordi jumlasida gap bo‘laklari joylashuvi to‘g‘ri ko‘rsatilgan qatorni aniqlang.

- A) aniqlovchi, hol, ega, to‘ldiruvchi, kesim
- B) aniqlovchi, to‘ldiruvchi, ega to‘ldiruvchi, kesim
- C) aniqlovchi, aniqlovchi, ega, to‘ldiruvchi, kesim
- D) to‘ldiruvchi, aniqlovchi, ega, aniqlovchi, kesim

7. Buvimning hikoyasini zavq bilan tinglardik. Ushbu gapda bilan qanday gap bo‘lagi vazifasida kelgan?

- A) to‘ldiruvchi
- B) aniqlovchi
- C) sabab holi
- D) ravish holi

8. Chakmonining ikki yonini xurjunga o‘xshatib yelkasiga tashladi-da, shoshmasdan orqaga qaytdi. Gapdagi shoshmasdan so‘zi holning qaysi turiga mansub?

- A) o‘rin holi
- B) payt holi
- C) sabab holi
- D) vaziyat (ravish) holi

9. Birovga choh qazima, o‘zing tushasan. Ushbu maqol qanday gap bo‘laklaridan tashkil topgan?

- A) hol, kesim, aniqlovchi, kesim
- B) to‘ldiruvchi, hol, kesim, aniqlovchi, kesim
- C) to‘ldiruvchi, to‘ldiruvchi, kesim, ega, kesim
- D) ega, kesim, ega, kesim

10. Miqdor holini toping.

- A) U o‘qish uchun shaharga keldi.
- B) Qushlar duv-duv uchishdi.
- C) Oybek bir ming to‘qqiz yuz beshinchi yilda tug‘ilgan.
- D) Bu gapni ming marta eshitganman.



Uyga vazifa:



TIIAME

II.O'qing. Hollarni topib yozing quyidagicha tahlil qiling: a) ma'nosiga ko'ra turi; b) qaysi so'z turkumi bilan ifodalanganligi; d) tuzilishiga ko'ra turi (sodda yoki birikmali).

1.U hayron bo'lib ohista boshini ko'tardi, oyoqlarini ko'rpaning ichiga uzatib o'tirgan holda qulqoq soldi. 2. Hamma yerda bulbulning shirin kuylari hamisha qulog'i ostida jaranglab turardi. 3. Qish oxirlab, vodiyyadagi qorlar allaqachon erib ketgan. 4. Oyqizning yuzlari qizarib ketdi, uyalganidan boshini quyi solib, indamay qoldi. 5. Oyqiz o'z-o'zicha o'ylanar edi. 6. Ko'zlari tolib, endigina uyquga ketgan Oyqiz yarim kechada qichqirgan xo'rozning bo'g'iq ovozidan uyg'onib ketdi. 7. U kamzulchasini yelkasiga tashlagan holda ohista yurib chiqdi, musaffo havodan to'yib-to'yib nafas oldi. 8. U o'zini zo'rg'a bosib olib, Umurzoq otaning ko'kragiga boshini shilq etib tashlar, shivirlab iltijo qilardi.

(Sh. Rashidov)